

ABU ISO MUHAMMAD AT-TERMIZIY (824-892)

*Xorazm viloyati Imom Faxriddin ar Roziy islom bilim yurti mudarrisi
Shermatov Muhammadyusuf G'ulomjon o'g'li*

Annotatsiya: Anu Iso Muhammad at-Termiziy hayoti va ijodi, oilasi haqida, yozgan asarlari hamda vafoti haqida

Kalit soʻzlar: Ad-Dariydir, Kitabun fil, «Risola fi-l-xilof va-l-jadal», «Ash-shamoil an-nasaviya».

Buyuk allomalardan biri — mashhur muhaddis (hadis ilmi olimi) Abu Iso Muhammad at-Termiziyning toʻliq ismi Abu Iso Muhammad ibn Savra ibn Muso ibn ad-Dahhok as-Sullamiy (umrining oxirlarida koʻzi ojiz boʻlib qolganligidan ad-Dariy taxallusi bilan ham atalgan) at-Termiziy boʻlib, u hijriy hisobda 209 (milodiy 824) yilda Termizda, uncha badavlat boʻlmagan oilada tavallud topdi. Uning yoshlik yillari Termiz shahrida oʻtib, dastlabki maʼlumotni ham shu shaharda olgan. Bolaligidan oʻta ziyrakligi, yodlash qobiliyatining kuchliligi va noyob qobiliyati bilan oʻz tengqurlaridan ajralib turgan at-Termiziy diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmni alohida qiziqish bilan egallagan va bu boradagi oʻz bilimlarini muttasil oshirish uchun koʻpgina Sharq mamlakatlarini ziyorat qilgan. Jumladan, u uzoq yillar Iroqda, Isfahon, Xuroson, Makka va Madinada yashagan.

At-Termiziy qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan, «Al-jomiʼ» («Jaʼmlovchi»); «Ash-shamoil an-nasaviya» («Paygʻambarning alohida fazilatlarini»); «Al-ilal fi-l-hadiys» («Hadislardagi ogʻishishlar»); «Risola fi-l-xilof va-l-jadal» («Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola»); «At-tarix» («Tarix»); «Kitob az-zuhd» («Taqvo haqida kitob»); «Kitob ul-asmo va-l-kuna» («Ismlar va laqablar haqida kitob») kabi asarlar shular jumlasiga kiradi.

Abul Fido Al-Muxtasar kitobida, Imom, Hofiz, koʻzi ojiz, hadis ilmida ergashiladigan mashhur hadis olimlaridan edi.

Juda koʻp kitoblar taʼlif etgan. Yozgan kitoblari ham u kishini na qadar yetuk olim ekanligini, ilm doirasini ham kengligiga dalolat qiladi. Ular:

1. Kitabut tarix
2. Sunani termiziy
3. Kitabul ilal
4. Ash-Shamoil
5. Asmaus sahoba

6. Kitabul jarh va ta'dil
7. Kitabuz zuhd
8. Kitabul asma val kuna
9. Kitabut tafsir
10. Rubaiyat fil hadis
11. Al-Ilalus sag'ir
12. Kitabun fil asaril mavqufa

12. Kitabun fil asaril mavqufa Imom Termiziy rohmatallohi alayh dastlabki ilmni tug'ilib o'sgan joyning shayxlaridan olgan. 235-yillar atrofida 25 yoshidaturli xil shaharlar Xuroson, Iroq, Hijoz va boshqa diyori olimlaridan ilm tahsil qilganlar. O'z o'rnida eng buyuk olimlardan dars olgan. Natijada zamonasining yetuk imomlaridan bo'lib yetishdi. Xususan mashhur ustozlaridan saxix to'plam sohibi Imom Muslim ibn Hajjoj Qushayriy, Sunani Abu Duvud sohibi Sulaymon ibn Ash'aslar bilan ko'rishib ilm olgan va hadis rivoyat qilgan. Hadislar va roviylarning holatini esa eng katta ustoz hadisda mo'minlarning amiri deb atalgan Muhammad ibn Ismoil Buxoriydan olgan. Ancha muddat ustozini etagini tutib juda ko'p ilmu fazlidan bahramand bo'lgan. Qolaversa Abdulloh ibn Abdurrahmon dorimiydan va Abu Zura Roziydanlardan hamilm olgan.

Asarlari:

-“Sunani Termiziy”: Bu asar “Sunani Termiziy” yoki “Al-Jome’ as-sahih” deb nomlanib, Imom Termiziyning eng mashhur shoh asaridir. Mazkur kitob hadis kitoblari orasida ham muhim o‘rin egallaydi, olti sahih kitobning hamda to‘rt sunanning biri hisoblanadi. Kitob o‘zida 3956 ta hadislarni mujassam etgan. Hadislar boblar, fiqh, hadisning illatlariga ko‘ra tartiblangan. Bundan tashqari kitobda hadisning sahih – saqim (kasal)lari bayoni, ularning o‘rtasidagi martabalar, ismlar va kunyalar jarh va ta’dil qoidalarga binoan bayon qilingan, ularning qaysilari Nabiy sollallohu alayhi vasallamga yetib borgan yoki bormaganligi keltirilgan.

-“Ash-shamoil an-nabaviyya”: Nabiy sollallohu alayhi vasallam siyratlari haqida yozilgan kitob bo‘lib unda Temiziy Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sifatlari, xulqlari, odoblari va amallari haqida bayon qilib berganlar. Bu kitobni 55 bobga taqsimlab, unda 397 ta hadis keltirgan.

-“Ilal at-Termiziy al- Kubro”: Bu kitob Termiziy o‘zining isnodlari bilan keltirgan bir qancha hadislardan iborat. Har bir hadisdan keyin uning hukmi borasida yo o‘zining yoki shayxlarining bergan hukmlarini bayon qilgan. Mazkur kitobdagi hadislarga aytilgan hukmlarning eng ko‘p qismi Imom Buxoriy hukmlariga to‘g‘ri keladi.

-“Al-ilal as-sog‘iyr”: Mazkur kitob Sunani Termiziyga bog‘liq qilib yozilgan. Imom Termiziy bu kitobda illatli hadislarni fiqhiy boblar tartibiga ko‘ra keltirib o‘tgan va har bir hadisning illatini bayon qilgan.

-“Tasmiya as'habur Rosulillah sollallohu alayhi vasallam”.

O‘z davrining yetuk muhaddis olimi sifatida tanilgan at-Termiziy ko‘pdan-ko‘p shogirdlarga ustozlik qilgan. Hadis ilmidagi uning shogirdlaridan Makhul ibn al-Fadl, Muhammad ibn Mahmud, Anbar, Hamad ibn Shokir, Abd ibn Muhammad an-Nasafyun, al-Haysam ibn Kulayb ash-Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf an-Nasafiy va Abul-Abbos Muhammad ibn Mahbub al-Mahbubiylarni sanab o‘tish mumkin. U 279 hijriy (milodiy 892) yilda Termizdan uzoq bo‘lmagan Bug‘ qishlog‘ida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘rta Osiyo allomalarining ilmiy merosi” uslubiy qo‘llanma. N.A.Jumayeva. Buxoro., “Durdona” nashriyoti, 2013 – yil.
2. <https://shosh.uz>
3. <https://uzhurriyat.uz>